



## Asosiy tarkib

## Dastlabki ma'lumotlar

## Tarkibiy qism, ulushlarda



Namangan viloyati bo'yicha 2021- yilning yanvar-sentabr oylarida chakana savdo tovar 9 923,1 mlrd. so'mni tashkil etib, 2020- yil yanvar-sentabr oylariga nisbatan 9,4 % ga ko'paygan. Shu jumladan, yirik korxonalarining tovar aylanmasi 675,2 mlrd. so'mni (o'sish sur'ati 72,7 %), kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining tovar aylanmasi 9 247,9 mlrd. so'mni (13,6 % ga ko'paygan. shundan uyushmagan savdo tovar aylanmasi 1 439,3 mlrd. so'mni (55,3 % ga ko'paydi) tashkil etdi.



## O'sish (o'zgarish) sur'atlari, foizda






## UMUMIY MA'LUMOT

Namangan viloyati bo'yicha 2021- yilning yanvar-sentabr oylarida chakana savdo tovar aylanmasi **9 923,1** mlrd. so'm ni tashkil etib, o'sish sur'ati 2020- yil yanvar-sentabr oylariga nisbatan 9,4 % ni tashkil etdi.

Namangan viloyati chakana savdo tovar aylanmasida barcha tumanlarda ko'payish sur'atlari kuzatildi. Chakana savdo tovar aylanmasining tarkibiy qismlarida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari hissasiga **93,2 %** va yirik korxonalar hissasiga **6,8 %** to'g'ri keldi.




## ENG YUQORI ULUSH

Namangan viloyati bo'yicha chakana savdo tovar aylanmasida eng yuqori ulushni Namangan shahri 42,7 % ulush bilan 4 237,4 mlrd. so'm ni tashkil etdi.

## ENG QUIYI ULUSH

Namangan viloyati chakana savdo tovar aylanmasida eng quyi ulushni Mingbulok tumanida 2,6 % ulush bilan 260,6 mlrd. so'mni tashkil etdi.

## YIRIK KORXONALAR, KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINING CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASIDAGI ULUSHI, foizda



Yirik korxonalar	Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari	
		2020- yil Yanvar-sentabr
		2021- yil Yanvar-sentabr

Chakana savdo tovar aylanmasida eng yuqori hajm kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlariga to'g'ri kelib, mazkur hajm 2021- yil yanvar-sentabr oylari yakuniga ko'ra, 9 247,9 mlrd.so'm ni tashkil etib, 2020- yil yanvar-sentabr oylariga nisbatan 13,6 % ga ko'paygan. Jami chakana savdo tovar aylanamasidagi ulushi esa 93,2 % ni tashkil etdi.

Bu ko'rsatkich hududlar kesimida taqqoslanganda Kosonsoy (98,9 %), Mingbuloq (98,3 %), Namangan (96,9 %) va Yangiqo'rg'on (96,7 %) tumanlarida yuqori bo'lgan.






**CHAKANA SAVDO AYLANMASIDA YIRIK KORXONALAR,  
KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK  
SUBYEKTLARINING HAJMI VA O'SISH SUR'ATLARI**

2021- yilning yanvar-sentabr oylariga nisbatan viloyatning barcha hududlarida chakana savdo tovar aylanmasining ko'payish sur'atlari kuzatilib, nisbatan yuqori ko'rsatkichlar Norin(114,1 %) To'raqo'rg'on (114,7 %) tumanlarida qayd etildi.


Chakana savdo aylanmasining o'sish sur'atlari, foizda



	Jami, mlrd. so'm	2020- yil yanvar-sentabr oylariga nisbatan, foizda	Yirik korxonalar, mlrd. so'm	2020- yil yanvar-sentabr oylariga nisbatan, foizda	Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik, mlrd. so'm	2020- yil yanvar-sentabr oylariga nisbatan, foizda
<b>Namangan viloyati</b>	<b>9 923,1</b>	<b>109,4</b>	<b>675,2</b>	<b>72,7</b>	<b>9 247,9</b>	<b>113,6</b>
<b>Namangan.sh</b>	<b>4 237,4</b>	<b>109,7</b>	<b>287,8</b>	<b>94,5</b>	<b>3 949,7</b>	<b>111,0</b>
<b>tumanlar:</b>						
Mingbuloq	260,6	112,6	4,0	103,6	256,7	112,7
Kosonsoy	529,2	110,3	5,3	103,4	523,9	110,3
Namangan	405,7	110,8	13,1	113,8	392,6	110,7
Norin	490,5	114,7	36,9	128,2	453,6	113,7
Pop	713,5	110,1	48,1	116,8	665,3	109,6
To'raqo'rg'on	657,3	114,1	49,5	158,7	607,8	111,5
Uychi	419,8	105,2	4,9	7,3	414,9	124,7
Uchqo'rg'on	384,1	109,4	24,5	96,2	359,6	110,5
Chortoq	410,9	105,2	11,8	23,2	399,1	117,5
Chust	939,1	103,2	176,1	50,9	763,1	135,3
Yangiqo'rg'on	474,9	111,1	13,3	94,3	461,6	111,7

### Yirik korxonalar

Eng yuqori ulushga  
ega hududlar, foizda




Chust  
To'raqo'rg'on, Norin  
Pop  
Uchqo'rg'on

Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarning tovar aylanmasi hajmi, 2020- yilning yanvar-sentabr oylariga nisbatan **27,3 %** ga kamaydi va **675,2** mlrd. so'mni tashkil qildi. Bu esa umumiy savdo hajmining **6,8 %** ulushiga to'g'ri keladi.




### Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari

Eng yuqori ulushga  
ega hududlar, foizda




Kosonsoy  
Uychi  
Mingbuloq  
Yangiqo'rg'on




Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining chakana savdo tovar aylanmasi hajmi statistik hisob-kitoblarga ko'ra 9 247,9 mlrd. so'mni tashkil etib, 2020- yilning yanvar-sentabr oylariga nisbatan **13,6 %** ga ko'paygan. viloyat miqyosida ushbu sektorning jami chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi **93,2 %** ni tashkil etdi.

**CHAKANA SAVDO AYLANMASIDA YIRIK KORXONALAR, KICHIK  
BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINING  
HUDUDLAR KESIMIDA ULUSHI (foizda)**



Tahliliy natijalarga ko'ra, chakana savdo tovar aylanmasida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining ulushi bo'yicha Kosonsoy (99,0 %), Uychi, (98,8 %), Mingbuloq (98,5 %), va Yangiqo'rg'on ( 97,2 %), tumanlari yetakchilik qilmoqda. Chakana tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarining ulushi 6,8 % ni tashkil etib, eng katta ulush Chust (18,7 %), Norin va To'raqo'rg'on (7,5 %), Uchqo'rg'on (6,4 %) tumanlarida kuzatildi.






## NAMANGAN VILOYATI BO'YICHA AHOLI JON BOSHIGA NISBATAN CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI HAJMI VA O'SISH SUR'ATLARI

2021- yil yanvar-sentabr oylari holatiga ko'ra o'rtacha aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi **3 432,7** ming so'm (2020- yil yanvar-sentabr oylariga nisbatan 7,2 % ga ko'paygan). To'raqo'rg'on, (112,7 %), Norin (112,6 %), Mingbuloq (110,2 %) tumanlari va boshqa barcha hududlarda aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi ko'rsatkichlarida ko'payish sur'atlari kuzatildi.

Ushbu ko'rsatkichni hududlar kesimida solishtirilganda eng yuqorisi Namangan shahri (6 510,1 ming so'm), Chust (3 464,2 ming so'm) va Pop (3 182,3 ming so'm) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi.




	Hajm, ming so'm	2020- yil yanvar-sentabr oylariga nisbatan, % da
Namangan viloyati	3 432,7	107,2
Namangan.sh	6 510,1	106,4
tumanlar:		
Mingbuloq	2 014,2	110,2
Kosonsoy	2 466,1	107,9
Namangan	2 237,5	110,1
Norin	2 931,9	112,6
Pop	3 182,3	108,1
To'raqo'rg'on	2 857,8	112,7
Uychi	1 918,5	102,9
Uchqo'rg'on	2 183,8	107,4
Chortoq	2 017,4	103,2
Chust	3 464,2	101,4
Yangiqo'rg'on	2 123,8	108,8



**UMUMIY OVQATLANISH KORXONALARI SAVDO AYLANMASIDA YIRIK  
KORXONALAR, KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK  
SUBYEKTLARINING HAJMI VA O‘SISH SUR‘ATLARI**

2021- yilning yanvar-sentabr oylarida chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida ovqatlanish tashkilotlarining savdo aylanmasi **1,4 %** ni tashkil etib, **134,3 mlrd. so‘mga** yetdi va 2020- yil yanvar-sentyabr oylariga nisbatan **1,8 %** ga ko‘paygan. Bunda jami savdo aylanmasining **95,7 %** ulushi kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari hissasiga to‘g‘ri kelmoqda.

**Umumiy ovqatlanish korxonalarini savdo aylanmasining o‘shish sur‘atlari, foizda**



	Jami, mlrd. so‘m	2020- yil yanvar-sentabr oylariga nisbatan, foizda	Yirik korxonalar, mlrd. so‘m	2020- yil yanvar-sentabr oylariga nisbatan, foizda	Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik, mlrd. so‘m	2020- yil yanvar-sentabr oylariga nisbatan, foizda
Namangan viloyati	134,3	101,8	5,8	45,4	128,6	107,8
Namangan.sh	77,2	101,5	5,7	47,9	71,4	111,5
tumanlar:						
Mingbuloq	3,1	101,9	0,0	0,0	3,1	101,9
Kosonsoy	3,8	103,0	0,0	0,0	3,8	103,0
Namangan	6,9	100,8	0,0	0,0	6,9	111,4
Norin	3,6	103,0	0,0	0,0	3,6	103,0
Pop	7,8	102,3	0,0	0,0	7,8	102,3
To‘raqo‘rg‘on	6,2	102,7	0,0	0,0	6,2	102,7
Uychi	2,8	102,9	0,0	45,4	2,8	104,3
Uchqo‘rg‘on	5,8	101,8	0,0	0,0	5,8	101,8
Chortoq	4,1	102,3	0,0	0,0	4,1	102,3
Chust	10,6	101,9	0,0	0,0	10,6	101,9
Yangiqo‘rg‘on	2,4	103,4	0,0	0,0	2,4	103,4



## ULGURJI SAVDO TOVAR AYLANMASI

### Asosiy tarkib, foizda




Yirik korxonalar




Mikrofirma va kichik korxonalar

Namangan viloyati bo'yicha 2021- yilning yanvar-sentabr oylarida ulgurji savdo tovar aylanmasi **3 544,7** mlrd. so'm ni tashkil etib, 2020- yil yanvar-sentabr oylariga nisbatan 8,7 % ga ko'paygan. Shu jumladan, yirik korxonalarining savdo tovar aylanmasi **682,1** mlrd. so'mni (**107,6** % ga ko'paygan), mikrofirmalar va kichik biznes subyektlarining savdo tovar aylanmasi **2 862,6** mlrd. so'mni (**9,0** % ga ko'paygan).


### O'sish (o'zgarish) sur'atlari, foizda



### Savdo aylanmasi hajmi va ulushi



### Eng yuqori ulushga ega hududlar






Ulgurji savdo tovar aylanmasida yuqori o'sish sur'atlariga ega yirik korxonalar To'raqo'rg'on (303,0 %), Uychi (217,8 %), Pop (139,5 %), Chortoq (112,1 %), tumanlarida kuzatildi.


Ulgurji tovar aylanmasida nisbatan yuqori o'zgarish sur'atlari, To'raqo'rg'on (172,5 %), Uychi (163,8 %), Uchqo'rg'on (118,6 %) viloyatlarida qayd etildi.

**Ulgurji savdo aylanmasi o'sish sur'atlari, foizda**




	Jami, mlrd. so'm	2020- yil yanvar-sentabr oylariga nisbatan, foizda	Yirik korxonalar, mlrd. so'm	2020- yil yanvar-sentabr oylariga nisbatan, foizda	Mikrofirma va kichik korxonalar, mlrd. so'm	2020- yil yanvar-sentabr oylariga nisbatan, foizda
Namangan viloyati	3 544,7	108,7	682,1	107,6	2 862,6	109,0
Namangan.sh	1 500,7	100,4	146,9	75,1	1 353,7	104,2
tumanlar:						
Mingbuloq	60,3	103,7	0,2	31,4	60,1	104,4
Kosonsoy	185,3	111,9	0,2	31,7	185,2	112,2
Namangan	134,9	114,7	0,8	58,2	134,1	115,4
Norin	269,3	104,4	27,2	106,7	242,1	104,2
Pop	151,3	104,4	0,7	139,5	150,6	104,2
To'raqo'rg'on	370,0	172,5	219,4	303,0	150,6	106,0
Uychi	302,2	163,8	126,2	217,8	176,0	139,1
Uchqo'rg'on	91,5	118,6	40,7	91,6	50,8	155,1
Chortoq	185,7	114,6	33,4	112,1	152,4	115,2
Chust	147,1	58,6	86,5	42,1	60,6	131,8
Yangiqo'rg'on	146,4	110,6	0,0	0,0	146,4	110,6

# YIRIK KORXONALAR VA KICHIK BIZNES SUBYEKTLARINING ULGURJI SAVDO TOVAR AYLANMASIDAGI ULUSHI, foizda



Ulgurji savdo tovar aylanmasida eng yuqori hajm kichik biznes subyektlariga to'g'ri kelib, mazkur hajm 2021- yil yanvar-sentabr oylari yakuniga ko'ra, **2 387,7** mlrd. so'mni tashkil etib, 2020- yil yanvar-sentabr oylariga nisbatan **6,4** % ga ko'paygan. Jami ulgurji savdo tovar aylanamasidagi ulushi esa **80,8** % ni tashkil etdi.

Bu ko'rsatkich hududlar kesimida taqqoslanganda, Yangiqo'rg'on (100,0 %), Kosonsoy (99,9 %), Mingbuloq (99,7 %) tumanlarida yuqori bo'lgan. Eng past ulush esa To'raqo'rg'on (40,7 %) tumaniga to'g'ri keldi.



Tashqi iqtisodiy faoliyat va  
savdo statistikasi  
boshqarmasi  
Tel : (69)-211-72-00